

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995–yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova	
Talabalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashning innovatsion texnologiyalari va ularni takomillashtirish	7
G.G'.G'affarova	
Raqamli jamiyatning intellektual madaniyati: falsafiy tahlil.....	13
K.D.Yarashev	
Jismoniy tarbiya va sport ixtisosligidagi talabalarda boshqaruv kompetentligining tavsifi.....	17
A.A.Rayimov	
O'quvchilarda akkulturatativ ko'nikmalarni rivojlantirishda madaniyatlararo muloqotning ijtimoiy-pedagogik zarurati	21
O.A.Ashurova	
Bo'lajak maktabgacha ta'lim mutaxassislarining ekoestetik madaniyatini rivojlantirishning metodik ta'minoti	25
N.M.Aliyev	
Gipotetik-deduktiv metod orqali bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari.....	30
S.S.Ulkanov	
Transport vositalari muhandisligi yo'nalishi talabalarining bilim olishlarida zamonaviy o'quv-didaktik vositalar asosida o'qitishning afzalliklari	35
T.M.Burxanov	
O'zbekiston Respublikasi qurolli kuchlari akademiyasi kursantlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va diniy qarashlarining statistik tahlili	40
U.R.Radjapov	
Maktablarda yengil atletika musobaqalarini o'tkazishning oddiy qoidalari.....	44
Sh.A.Mamajonov	
Ekologik tarbiyalanganlik-jamiyat va uning taraqqiyoti uchun muhim omildir	48
F.K.Yusupova	
Talabalarining ijodkorlik faoliyatlarini rivojlanishida texnik ijodkorlikning o'rni	53
O.O.Qodirov	
O'quvchilarda kommunikativ kompetentsiyasini rivojlantirishning o'ziga xosligi va zaruriyati	58
M.M.Mamatkodiroy	
Maktab ta'limida raqamli texnologiyadan foydalangan holda o'qitish usullarini takomillashtirish	63

IQTISODIYOT

X.X.Bozarov	
Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida tarmog'i bo'yicha ixtisoslashuv jarayonlarini takomillashtirish.....	70

FALSAFA

I.A.Suvanov	
Globalashuv sharoitida xavfsizlik va barqarorlikka rahna soluvchi mafkuraviy tahdidlar	76
A.N.Meliboyev	
Kambag'allikka qarshi kurash strategiyasi orqali yangi O'zbekistonda farovon jamiyat qurish istiqbollari	83
G'.Z.Abduraxmonov	
G'oyaviy birlashuv tushunchasining mazmun-mohiyati va konseptual asoslari.....	88
S.S.Jabborova	
O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli	93

GLOBALASHUV SHAROITIDA XAVFSIZLIK VA BARQARORLIKKA RAHNA
SOLUVCHI MAFKURAVIY TAHIDDLARИДЕОЛОГИЧЕСКИЕ УГРОЗЫ БЕЗОПАСНОСТИ И СТАБИЛЬНОСТИ В УСЛОВИЯХ
ГЛОБАЛИЗАЦИИ

IDEOLOGICAL THREATS TO SECURITY AND STABILITY UNDER GLOBALIZATION

Suvanov Ilhom Abdixalilovich¹¹Suvanov Ilhom Abdixalilovich– Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi
huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti**Annotasiya**

Mazkur maqolada hozirgi davrda O'zbekistonda, bir tomondan, globallashuv jarayonining afzalliklaridan jumladan, iqtisodiyotning barcha sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida jihozlash, investitsiyalarni keng jalb etish, oqilona foydalanish taraqqiyot yo'li va uning o'ziga xosligi to'g'risidagi fikr mulohazalar bayon qilingan.

Аннотация

В данной статье, с одной стороны, показаны преимущества процесса глобализации в Узбекистане в настоящее время, включая оснащение всех отраслей экономики современной техникой и технологиями, широкое привлечение инвестиций, рациональное использование пути развития и его уникальности.

Abstract

This article, on the one hand, shows the advantages of the globalization process in Uzbekistan at the present time, including equipping all sectors of the economy with modern equipment and technologies, widespread attraction of investments, rational use of the development path and its uniqueness.

Kalit so'zlar: Insonparvar, demokratik jamiyat, Amerika e'tiqodi, zamonaviy dunyoqarash, markaziy Osiyo, uzluksiz ta'lim, individual sifatlar, barkamol inson, ta'lim standartlari, investitsiyaviy faoliyati, ilmiy-metodik.

Ключевые слова: Соединенные Штаты Америки, американская вера, современное мировоззрение, Центральная Азия, непрерывное образование, индивидуальные качества, совершенный человек, образовательные стандарты, инвестиционная деятельность, научный метод.

Key words: In the educational system, testology, Smart-technology, modern outlook, social necessity, continuous education, individual qualities, well-rounded person, educational standards, psychometric test, scientific method.

KIRISH

Hozirgi davrda O'zbekistonda, bir tomondan, globallashuv jarayonining afzalliklaridan (jumladan, iqtisodiyotning barcha sohalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida jihozlash, investitsiyalarni keng jalb etish, jahon bozoriga integratsiyalashuv va h.k.) oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan, uning salbiy ta'sirini (dunyoning yetakchi davlatlari va transmilliy korporatsiyalarning tabiiy zahiralarga egalik qilishga intilishi, demokratiyani siljitish strategiyasining amalga oshirilishi, ommaviy madaniyat namunalari keng tarqalishi, terrorizm va ekstremizmning global tus olishi va h.k.) bartaraf etish borasida pishiq-puxta o'ylangan izchil siyosat olib borilmoqda. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek, «Hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganini sog'lom fikrlaydigan har qanday odam, albatta, kuzatishi muqarrar».[1] Shu bois globallashuv jarayonining ijobiy jihatlari e'tiborga olgan holda uning g'oyaviy-mafkuraviy ta'siridan ogoh bo'lish, ayniqsa, yoshlarimizni bunday xurujlardan asrab-avaylash g'oyasi muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonda insonparvar, demokratik jamiyat qurilayotgan hozirgi sharoitda fuqarolar ongi va faoliyatiga siyosiy ekstremizm, diniy va fundamentalizm, etnik va millatlararo ziddiyatlar, korrupsiya va jinoyatchilik, mahalliychilik va urug'-aymoqchilik, ekologik muammolar mafkuraviy tahdid shaklida namoyon bo'layotir. Ayniqsa, o'rta asr xalifaligini qayta o'rnatish g'oyasi hamda xalqaro terrorchilik va diniy ekstremizm markazlari orqali moddiy-g'oyaviy ta'minlanayotgan aqidaparastlar mafkurasida bugun mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlik uchun katta xavf bo'lib turibdi.[2]

FALSAFA

Bugungi kun siyosati mafkuraviy xavfsizlikni ta'minlash, g'oyaviy ta'sir ko'rsatishga qarshi sog'lom g'oya bilan javob berish, yoshlarni bunyodkor g'oyalar bilan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Globallashuvning salbiy jihatlariga quyidagilarni kiritish mumkin:

- rivojlanmagan mamlakatlarning iqtisodiy o'sishi rivojlangan mamlakatlarnikiga nisbatan sustroq bo'lganligi sababli globallashuvdan keladigan afzallik va ustunliklar asosan rivojlangan mamlakatlar hissasiga to'g'ri keladi;
- boy va kambag'allar o'rtasidagi masofa yanada chuqurlashishi, adolatsizlik, tengsizlik natijasida ko'pgina ziddiyatlar paydo bo'lishi ehtimoli bor;
- ba'zi mamlakatlar iqtisodiyotining nazorati mustaqil hukumatlardan salohiyatliroq bo'lgan xalqaro tashkilotlarga yoki transmilliy korporasiyalar qo'lga o'tish xavfi mavjud;
- globallashuv natijasida turli yuqumli kasalliklar, giyohvandlik, uyushgan jinoyatchilikning bir mamlakat hududidan boshqalariga tarqalishi osonlashadi;
- globallashuv milliy davlatchilik poydevorining zaiflashuviga va hatto ayrim davlatlarning yo'qolib ketishiga, g'arb pop madaniyatining keng tarqalishiga va aksincha, turli milliy madaniyatlarning yuqolib ketishiga olib kelishi mumkin (olimlarning ta'kidlashicha, g'arb madaniyati ta'sirida hozirgi paytda dunyoda haftasiga 2 ta til o'lik tilga aylanmoqda).[3] Shu sababli globallashuv ziddiyatli hodisa bo'lib, avvalo, ommaviy madaniyat niqobidagi noxush hodisalarning aksilmadaniyatning tarqalish xavfi hamda xalqlarning rang-barang, boy ma'naviy hayotining bir xillashuvi, milliy o'zlik tuyg'usining susayishi, egoizm va nigilizm kabi xatarlarning kuchayishi hamda ma'naviyatsizlik muammolarining namoyon bo'lishida ko'rishimiz mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Globallashuv jarayonining o'ziga xos jihatlaridan yana biri «hozirgi sharoitda u mafkuraviy ta'sir o'tkazishning nihoyatda o'tkir quroliga aylanib, har xil siyosiy kuchlar va markazlarning manfaatlariga xizmat qilayotganidir. Mana shunday vaziyatda odam o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy–milliy qadriyatlarga, sog'lom negizda shakllangan dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, har turli ma'naviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishidagi ta'siriga bardosh berishi amrimahol. Xulosa qilib aytganda, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: «Biz boshimizdan kechirayotgan hozirgi globallashuv davri o'ta shiddat bilan o'zgarayotgani va turli tahdidlar ko'pligi bilan oldimizga hal etishni kechiktirib bo'lmaydigan g'oyat murakkab vazifalarni qo'yimoqda».[5]

Globallashuv sharoitida jamiyat xavfsizligi hamda mamlakat barqarorligini ta'minlash hozirgi kunning dolzarb muammosi hisoblanadi. Bunday dunyo miqyosida globallashuv jarayonining kuchayishi natijasida avj olib borayotgan ma'naviy hurujlar, yot g'oya va mafkuralar ta'sirida inson qalbi va ongini zabt etishga harakat tobora kuchayib bormoqda. Shu nuqtai-nazardan qaraganda, missionerlik harakati globallashuv jarayonining eng murakkab muammolari qatorida o'ziga xos ijtimoiy-siyosiy tahdid sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa zamonaviy missionerlikni belgilangan maqsadlari asl mohiyatini siyosatshunoslik fanlari nuqtai nazaridan asoslab berishni taqozo etmoqda.

Hozirgi kunda missionerlik va prozelitizm harakatlarining bosh maqsadi har qanday xalq, millat yoki elatning siyosiy barqarorligiga o'z ta'sirini o'tkazish, ekstremistik harakatlarni avj olishiga qaratilgan buzg'unchi g'oyalarni targ'ib etishda asosiy omil vazifasini o'tamoqda. Shuning uchun ham mazkur harakatlarni oldini olish va ularni bartaraf etish dolzarb muammolardan biriga aylanib bormoqda. Ayniqsa bugungi kunda missionerlik va prozelitizm harakatlari geosiyosiy kuchlar ko'magida tobora xavfli ma'naviy-mafkuraviy qurol sifatida, o'zga din vakillari e'tiqodiga rahna solayotganligi keng jamoatchilikni tashvishli bir holatga solib qo'yimoqda. Bu haqida AQSHlik tadqiqotchi Samyuel Xantington ham o'zining «Sivilizasiyalar to'qnashuvi» asarida butun insoniyatni ogohlantirib, «Turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi rivojlangan davlatlar to'qnashadi» [6]–deya, ta'kidlagan edi. Darhaqiqat, ayrim mintaqalarda turli xil dinlarga e'tiqod qiluvchi xalqlar orasida ijtimoiy-siyosiy kuchlar o'zlarining geosiyosiy maqsadlarini ko'zlab, nizo va kelishmovchiliklarni keltirib chiqarishda dindan xususan, missionerlik va prozelitizm harakatlaridan foydalanishayotganligi bejiz emas. Chunki bir tilda so'zlashuvchi, umumiy tarix va yagona davlatga ega bo'lgan, ammo turli dinlarga e'tiqod qiluvchi millatlarda diniy muammolar tufayli kelib chiqayotgan nizoli vaziyatlar fuqarolar urushining kelib chiqishiga zamin yaratadi. Turli darajadagi diniy adovat va to'qnashuvlar oqibatida kelib chiqayotgan urushlar natijasida esa har qanday davlat

o'z taraqqiyotida ancha orqada qolib ketadi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, diniy ta'limotlar jamiyat va davlat hayotida muhim o'rin tutib, insonni boshqarishda alohida ahamiyatga ega. Zero, aksariyat siyosiy kuchlar o'zlarini g'arazli maqsadlarini amalga oshirishda bevosita dindan foydalanishmoqda. Ayniqsa, dunyo miqyosidagi siyosiy jarayonlarga asosiy ta'sir vositasi sifatida mafkuraviy suqulib kirish, ijtimoiy munosabatlarga ta'sir o'tkazish, bevosita missionerlik va prozelitizm harakatlari orqali amalga oshirilmoqda.

Yurtimizda yashovchi barcha millat va elatlarining birdamligini ta'minlashda diniy bag'rikenglikni mustaxkamlash, bir g'oya atrofida birlashish tamoyiliga amal qilinmoqda. Bu haqda fikr yuritganda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: «Ma'lumki, bizning qadimiy va saxovatli zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan».[7] Binobarin, xalqimizning azaliy qadriyati hisoblanmish ezgulik, qalb sahovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga xos mentalitetini asosini tashkil etadi.

Missionerlar o'z faoliyatini avvalo, o'z dinini o'zga din vakillari orasida targ'ibot va tashviqot qiluvchi shaxslar sifatida namoyon bo'lmoqda. Missionerlar insonlarni o'zining diniga jalb etish orqali o'z cherkovlarida targ'ibot ishlarini yanada kuchliroq davom ettirishga alohida e'tibor qaratadi. Ayniqsa, tajribali missionerlar muayyan mamlakatdagi aholining tili, dini, madaniyati hamda qadriyatlarini puxta o'rganish orqali kerakli vaziyatda o'ta sezgir bo'lishga intilishadi. O'z navbatida, missionerlar turli toifadagi insonlar orasida o'zlarini o'ta xushyor tutishga alohida e'tibor qaratadi. Missionerlik metodikasi zamiriga e'tibor qaratilsa, puxta o'ylangan rejalar asosida, go'yoki o'z faoliyatini amalga oshirishda dindan niqob sifatida foydalanishini anglash lozim. Mazkur harakatlar strategiyasida muayyan mamlakatlarda «ocharchilik, qashshoqlik», «inson huquqlarini poymol etilishi», «milliy nizolarni bartaraf etish», «gumanitar xalokatni oldini olish» niqobi ostidagi amalga oshirilayotgan maqsadli faoliyatni anglash lozim. Ayniqsa, missionerlar o'z faoliyati jarayonida mazkur vaziyatdan foydalangan holda muayyan hududdagi aholini o'zining soxta dinlariga o'tkazishga harakat qilishadi. Zero, missionerlik tashkilotlari «beg'araz» yordam ko'rsatish niqobi ostida o'zga mamlakatlarga suqilib kirish orqali davlatlarning ichki ishlariga bevosita aralashuvini anglash lozim.

Missioner faoliyati davomida yuzlab insonlarni o'z diniga jalb etsa, uning tarkibiy qismi prozelit esa qisqa davr mobaynida ko'plab insonlarni o'z dinidan voz kechib, o'zga dinni qabul qilishga majbur qiladi. O'tmishdan ma'lumki, prozelitizm bilan shug'illanuvchi shaxslarga nisbatan doimo nafrat bilan qaralgan. Xususan, prozelitizm ta'sirida insonlar o'zlarining ajdodlari e'tiqod qilgan azaliy dinlaridan voz kechib, o'zga dinni qabul qilishgan. Prozelitizm zamiriga e'tibor qaratilsa, mazkur harakat tarafdorlari o'z maqsadiga erishish uchun turli usul va vositalardan foydalanadi. Ayniqsa, ushbu harakat qatnashchilari OAV orqali jamoat joylarida: konsert zallari va stadionlarda tadbirlar uyushtirib, diniy adabiyotlarini tarqatish orqali o'zlarining dinini targ'ibot va tashviqot qilishga alohida e'tibor qaratadi. Missionerlikning bunday siyosiy mazmundagi harakatlari aksariyat hollarda tajovuzkor ko'rinishda namoyon bo'lmoqda. O'z navbatida missionerlik va prozelitizm harakatlari, avvalo, u jamiyat hayotining barcha jabhalarini izdan chiqarishi, davlat boshqaruvida tartibsizlik va parokandalakni vujudga keltirishi, mamlakatda bir-biriga qarama-qarshi guruhlarni shakllantirish orqali, millatlararo, dinlararo ziddiyatlarni to'g'irib, davlat miqyosida ayirmachilikni keltirib chiqarayotganligini ta'kidlash o'rinlidir. Mazkur holat, avvalo, mamlakat miqyosida barqaror ijtimoiy vaziyatni chigallashtirishga, davlat boshqaruvida ham jiddiy muammolarni kelib chiqishiga bevosita sabab bo'lmoqda.

Mafkuraviy beqarorlik – kishilik jamiyatiga xos muayyan xususiyatlardan biri; mafkuraviy sohadagi tamoyillarning qaror topmagani, doimiy bo'lmagani, muqim bo'lmagani kabi ma'nolarni anglatadi. Bu tushuncha gohida ijtimoiy hayotda mafkuralarning almashib turishi jarayonini izohlash uchun ham qo'llaniladi. Mafkuraviy beqarorlik, asosan, muayyan bir hududda davlat tizimi birijtimoiy-iqtisodiy tuzumdan boshqasiga o'tish davrida yuzaga keladi. Shu nuqtai nazardan olganda, Mafkuraviy beqarorlikni – muayyan tarixiy sharoitda yuzaga keladigan g'oyaviy o'zgaruvchan holat deb ham atash mumkin. Jamiyatning yangilanish bosqichlarida, odatda, tizim, eski turmush tarzi bilan birgalikda o'sha tizim mafkurasi ham tuban bo'ladi, bunday hol ma'lum darajada mafkuraviy bo'shliqni yuzaga keltiradi. Mafkuraviy bo'shliq va mafkuraviy beqarorlik hamohang, chunki bunday paytda vaziyatdan foydalanish ilinjida turli g'arazli maqsadlarni ko'zlagan mafkuralar ham bosh ko'taradilar. Agarda ana shu holatda ehtiyotsizlikka yo'l qo'yilsa, jamiyat halokat yoqasiga kelib qolishi mumkin. Tom ma'nodagi mafkuraviy beqarorlik ana shunda

FALSAFA

paydo bo'ladi. Yuzaga chiqqan turli begona, yot mafkuralar bilan yangidan shakllanayotgan milliy mafkura o'rtasida murosasiz kurash boradi. Bu kurash tomonlarning o'zaro vaqtinchalik muvaffaqiyatlari tarzida kechishi mumkin. Bunday beqarorlik ijtimoiy hayotga katta salbiy ta'sir ko'rsatadi.

NATIJALAR

Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi – g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlarining kengayishi oqibatida unga Yer yuzining barcha mintaqalarida mafkuraviy kurash umumbashariy miqyos kasb etganini ifodalovchi tushuncha. Insoniyat tarixining hozirgi bosqichi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, madaniy hayotning barcha sohalarida xalqaro munosabatlarning integrasiyalashuvi va intensivlashuvi bilan xarakterlanadi. Xususan, aloqa vositalarining rivojlanishi, ularning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, internet, kosmik teleradio aloqa tizimlarining texnik-texnologik vositalari kuchayib ketishi bilan axborot almashuv, binobarin, g'oyaviy ta'sir o'tkazish imkoniyatlari ham tobora kengaymoqda. Mafkuraviy jarayonlarning glaballashuvida bir-biridan tubdan farq qiladigan ikki yo'nalish, tendensiya namoyon bo'lmoqda. Birinchidan, insoniyat sivilizasiyasi tarixida erishgan har qanday moddiy va ma'naviy qadriyatlarining umuminsoniy jihatlari tarixiy makon doirasidan chiqib baynalminallashib, universallashtirib bormoqda. Boshqacha aytganda, milliylik va umuminsoniylik tamoyillarining integrasiyalashuv jarayoni kechmoqda. Ikkinchidan millatlar va davlatlarning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma'aniy-madaniy rivojlanishidagi beqarorlik, ular manfaatlaridagi o'ziga xoslikni mutlaqlashtirish insoniyatga, shu jumladan, o'z millatining kelajagiga xavf tug'diradigan salbiy hodisalarning mafkuralashgan holda globallashuviga olib kelmoqda. Bu xalqaro terrorizm, ekstremizm, fundamentalizm va narokobiznes hodisalarida namoyon bo'lmoqda. Biron-bir hudud yoki mamlakatda paydo bo'layotgan g'oyalar tez fursatda butun jahonga yoyilmoqda. Natijada odamzod ma'lum bir davlatlar va siyosiy kuchlarning manfaatlariga xizmat qiladigan, olis – yaqin manbalardan tarqaladigan, turli mafkuraviy markazlarning bosimini doimiy ravishda sezib yashamoqda. Bu jarayonning eng muhim xususiyatlaridan biri – turli mamlakatlarni mafkuraviy zabt etish g'oyat katta iqtisodiy manfaatlar bilan chirmashib ketganidir. Mafkuraviy glaballashuv saviyasi past audio va videokassetalar, axloqsizlik, tubanlik va yovuzlikni targ'ib qiladigan «san'at asarlari»ning ham keng tarqalishiga sabab bo'lmoqda. G'oyaviy –mafkuraviy tazyiq va tajovuzlarning oldini olish uchun esa har bir millat, davlat o'zining g'oyaviy-mafkuraviy daxlsizligini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ko'rish zarur bo'lib qolmoqda. Ana shunday tadbirlar izchil amalga oshirilganda mafkuraviy jarayonlarning glaballashuvi g'oyaviy qarashlardagi muayyan farqlardan qat'iy nazar, umuminsoniy qadriyatlar, tinchlik g'oyalariga sodiqlikning kamol topishiga sharoit yaratadi, umuminsoniy sivilizasiya taraqqiyotining muhim omiliga aylanadi.

Vayronkor g'oyalar – bunyodkor g'oyalarga zid bo'lgan, yovuzlik va jaholatga xizmat qiladigan g'oyalar majmuini ifoda etadigan tushuncha.[7] Jamiyatni tubanlikka yetaklab, odamlarni g'arazli niyat va qabih maqsadlarga undaydigan, xalqlar va davlatlarni tanazzul va halokatga mahkum etadigan g'oyalar (o'zining shaxsiy yoki ijtimoiy manfaatlarini o'zgaralar hisobiga qondirish, boqinchilik, talonchilik va b.). Vayronkor g'oyalar insonparvarlik tamoyiliga zid bo'lgan, bir millatni boshqasidan ustun qo'yadigan, oliy irq da'vosida boshqa xalqlarni qirg'in qilishga chaqiradigan, jamiyatni qarama-qarshi qutblarga ajratib, bo'lib tashlashga sabab bo'ladigan g'oyalar majmuidir. Aqidaparstlikva jangari irqchilik (rasizm), buyuk davlatchilik shovinzmi va ashaddiy millatchilik, fashizm, bolshevizm, terrorizm kabi mafkuralar vayronkor g'oyalar jumlasiga kiradi.

Vesternizasiya (ingl, western - «G'arb») —yevropasentrizm g'oyasining zamonaviy ko'rinishi bo'lib, insoniyat erishgan barcha yutuqlarni g'arblashtirish, G'arb dunyosining o'ziga xos tafakkuri va turmush tarzi natijasi deb ko'rsatishga urinish, G'arb mamlakatlarini ilg'or va yetakchi kuch, ideal hodisa sifatida targ'ib etishga qaratilgan nazariya va amaliyot. Vesternizasiya tushunchasi XIX asrning 50-yillaridan e'tiboran, oshkora aytila boshladi. Bugungi kunda vesternizasiya tushunchasi «kosmopolitizm» («dunyo fuqaroligi»), «globallashuv», «ommaviy madaniyat» kategoriyalari bilan bir qatorda ishlatilmoqda. G'arbda vesternizasiya siyosatini qo'llab-quvvatlovchilar ham, unga mutlaqo qarshi bo'lgan guruhlar ham mavjud.

XIX asrga kelib jahonda mustamlakachilik harakatlarining kengayib borishi Osiyo, Afrika, Avstraliya va Amerikadagi ko'plab yangi-yangi xalqlarning bo'ysundirilishiga olib keldi. Zabt etilgai hududlarda «Yevropa – madaniyatlar o'chog'i» degan aqidaga asoslangan yevropasentrizm g'oyasi, irqchilik va millatchilik avj oldi. Jahondagi barcha xalqlar G'arbnig dini, ma'naviyati,

ma'rifati, urfodatlari va turmush tarzidan o'rnak olishi lozim, degan aqida mustamlakachilarning asosiy g'oyasiga aylandi. Yevropasentrizm g'oyalari turli hududlarda zo'ravonlik yo'li bilan tatbiq etildi. Bu g'oya asosida yevropalashtirish (g'arblashtirish) jarayoni avj oldi. G'arbcha dunyoqarash va turmush tarzi keng targ'ib etila boshladi. XIX asrning ikkinchi yarmida dunyo xaritasi iqtisodiy va harbiy jihatdan ustun mamlakatlar va ularga qaram bo'lgan, aholisi qashshoq, mustamlaka o'lkalarga bo'linishi ta'sirida G'arb xalqlarining boshqa xalqlarga nisbatan ustunligi g'oyasi ilgari surildi. Bu kabi intilishlar XX asr va ayniqsa, XXI asrning boshlariga kelib yanada avj olib, G'arbdagi siyosiy kuch va markazlar Sharq jamiyatlariga «erkinlik va demokratiyani olg'a siljitish», «adolat va tartib o'rnatish», «sivilizatsiyaga oshno etish» va «ochiq jamiyat barpo etish» niqobi ostida amalga oshirilayotgan siyosatning asl mohiyati va maqsadlari, avvalo, muayyan mamlakatlarni o'ziga tobe etish, ularning yer usti va yer osti boyliklarini egallab olish, milliy qadriyatlarini, tarixi va ma'naviyatidan judo etishga qaratilgan.[9]

Avvalo demokratiya niqobidagi tahdidlar xalqaro maydondagi turli siyosiy kuchlar tomonidan ongli ravishda, uzoqni ko'zlab amalga oshirilayotganini ta'kidlash lozim. Ular uzoq va davomli strategik rejalarga ega ekani ham bu fikrni tasdiqlaydi. Erkinlik, demokratiya, inson huquqlari kabi jozibali g'oyalarni niqob qilib olgan bu siyosiy kuchlar shu asosda dunyodagi xohlagan mustaqil davlatning ichki ishlariga aralashib, g'arazli maqsadlariga erishmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham bunday tahdidlardan ko'zlangan maqsad ayrim qudratli davlatlar tomonidan muayyan mamlakatlarni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy jihatdan tobe qilishi, endigina rivojlanib kelayotgan milliy davlat va hududlarning yer osti hamda yer usti boyliklarini egallab olish, dunyoning ba'zi mintaqalardagi tinch hayotni izdan chiqarib, bu yerlarda aynan qudratli davlatlarning manfaatlariga xizmat qiladigan kuchlarni hokimiyat tepasiga keltirish kabi mudhish oqibatlarini sodir etishdan iboratdir. Bir so'z bilan aytganda, demokratiya niqobidagi tahdid mustaqil davlatni o'zga bir davlatga qaram qilishga qaratilgan xavf-xatardir. Bunday g'arazli siyosatga ko'plab misollar keltirish mumkin. Misol uchun, sobiq Yugoslaviya davlati erkinlik va demokratiya niqobi ostida bir necha mayda davlatlarga bo'lib yuborildi. Demokratik jamiyat qurish bahonasida Iroq va Afg'onistonda hamon urush alangasi o'chgani yo'q.

MUHOKAMA

XIX asrning 80-yillaridan boshlab ayrim g'arb g'arb mamlakatlari yordamida Yaponiyaning Nagasaki va Xrosima shaharlarini megopolis shaharlarga aylantirish harakatlari boshlandi. Bu ikki shaharda xorij mablag'i hisobidan sanoat rivojlantirildi, g'arbona turmush tarzi targ'ib etildi. 1945 yilga kelib esa aynan Nagasaki va Xirosima shaharlariga atom bombasi tashlangani ko'pchilikka yaxshi ma'lum. Salkam oltmish yil davomida qurilgan shahar vayron qilib tashlandi va hozirga qadar davom etib kelayotgan nurlanish kasaliga duchor qilindi. Shu ma'noda, chetdan bo'ladigan «mehribonchilik»larni hamma vaqt ham beg'araz deb bo'lmaydi. Jumladan, erkinlik va demokratiya niqobi ostidagi intilishlarni ham. Bu niqoblar, shunchalik jozibaliki, ularning zararli mohiyatini darhol anglab olish qiyin. Chunki ular balandparvoz va dalarga o'ralgan bo'ladi. Bunda ko'pincha quyidagi usullar qo'llanadi:

muayyan davlat uzluksiz va izchil ravishda xalqaro miqyosda yillab tanqid qilib boriladi;
mustaqil davlatning rahbariyati asossiz ravishda demokratiyani xush ko'rmaslikda ayblanadi;

mustaqil davlat fuqarolari orasida manfaatparast, Vatan tuyg'usidan bebahra kishilar topilib, soxta demokratiya g'oyalariga, aldanishga moyil odamlar guruhi shakllantiriladi;

boylikka o'ch va hokimiyatparast ayrim kimsalar bilib-bilmay bunday g'arazli siyosiy kuchlarga xizmat qila boshlaydi, ular arzimmas muammolarni ham yirik muammo sifatida ko'rsatib, ayuhannos solishadi;

vaqt o'tib, ma'lum bir sharoitlar yetilgach, «rangli inqilob» qilinib, hokimiyat tepasiga betayin va beburd, xalq, Vatan manfaatlaridan begona, aksincha yot manfaatlariga xizmat qiladigan kimsalar ko'tariladi.

Demokratiya niqobida turli jozibali dastur va harakatlar bugungi kunda g'arazli maqsadlarni ko'zlaydigan siyosiy kuchlarning eng maqbul va qulay kurash usuliga aylanib bormoqda. Bu usul bamisoli ichi zaharga to'la bo'lgan asalni eslatadi. Ko'pchilik sodda odamlar uni asal sifatida tasavvur etib, aslida nima ekanligini bilmay, iste'mol qiladi, ammo uning tarkibidagi zahar bir kun kelib qon qustirishidan bexabar bo'ladi. Ta'kidlash kerakki, demokratiya niqobidagi tahdidlarning mudhish oqibatlari keng ko'lamdagi hech narsa bilan o'rnini qoplab bo'lmaydigan ma'naviy-ruhiy

FALSAFA

zarari bilan dahshatlidir. Bunday zararlarning asosiy ko'rinishlari haqida gapirganda, quyidagilarga alohida to'xtalib o'tish o'rinli bo'ladi.

1. *G'arazli maqsadlarni ko'zlaydigan kuchlar erkin turmush tarzi, iqtisodiy ma'murlik va farovon hayot va'da qiladi.* Bunday jozibali va'dalar har qanday sodda kishini o'ziga jalb qiladi. Ayniqsa, rivojlanayotgan va o'tish davridagi davlatlarning fuqarolari bunga tez ishonib qoladi. Shu ma'noda, demokratiya niqobidagi tahdidning birinchi zarari mustaqil davlatning fuqarolari ongini yolg'on va'dalar bilan chalg'itishdir.

2. *Demokratiya niqobidagi tahdid dunyoqarashi hali to'liq shakllanmagan odamlar, avvalo yoshlarni ma'naviy jihatdan majruh qiladi.* Chunki yolg'on va'dalarga ishongan odamda o'z Vatani, xalqi va jamiyatiga nisbatan ishonchsizlik paydo bo'ladi. Ularda fidoyilik, tashabbuskorlik va mehnatsevarlik ishtiyoqi asta-sekin so'nib boradi. Eng yomoni – shaxsda o'z jamiyatida o'zini yolg'iz sezish ruhi paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatda parokandalikka, birlik va birdamlikka putur yetishiga olib keladi.

3. *Demokratiya niqobidagi tahdid davlatning mustaqilligi, xalqning tinch-osoyshta hayotiga xavf soladi.* Chunki yot g'oyalar ta'sirida inson va davlat o'rtasidagi munosabatlar murakkablashib, mamlakat asta-sekin boshqalarga, iqtisodiy qaram bo'lib boradi.

4. *Demokratiya niqobi ostida mustaqil davlatga iqtisodiy tazyiq va cheklolvar e'lon qilinadi.* Bu esa mamlakatning tashqi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshqariluvchi xaos avvalo odamlarning miyasida boshlanadi. Buning uchun aholining ma'naviyati, dunyoqarashi nishonga olinadi. Odamlarning motivlari, xulq, tutumlarini egallab olishda axborot texnologiyalari, Internet ularga yordam beradi. Ijtimoiy tarmoqlar qancha odam kerak bo'lsa, shuncha odamning ko'z-qulog'ini egallab, qamrab beradi. Ular odamlarning miyasiga o'zlariga ma'qul so'z, tushuncha, jargon, obraz, tasvirlarni (o'z mediaaskarlarini) kiritishadi (xuddi Troya oti kabi). Har kuni o'zingiz bilmagan holda ularni qabul qilasiz, aytasiz, qo'llaysiz, ishlatasiz. Chizburger, fast-fut shirin, lekin ularda sog'lig'ingizga zarar borligini bilib turib, o'z pulingizga sotib olib yeganingiz kabi.

Yangi ibora, tushuncha, fikrlarni «noto'g'ri, zararli», deb miyangizdan, tasavvuringizdan chiqarib tashlay olmaysiz. «O'zim bilaman qanday yashashni. Mening o'z qarash (askar)larim bor. Bu ta'sirlar o'tkinchi. Hech narsani o'zgartira olmaydi», deysiz loqaydgina. Shu alfozda noto'g'ri qarorlarga asos beruvchi qarash, fikr, o'y, ma'lumotlar xotirangizda to'planaveradi. Ular ham «Bu bosh – mening makonim, demak, meniki», deb hisoblashadi. Ular ko'payaverishadi. Kunlarning birida miyangizga so'ramay kirib olib, bemaol yashayotgan begona qarash, fikr (askar)lar sizning bagona (o'z) qarash, fikr (askar)laringizga zo'rlik qila boshlaydi. Dastlab qarshilik qilasiz. Lekin tevarak-atrofdan ham, boshqalarda ham shu holatni sezib, «Be. O'zi shunday ekan-ku», deb to'ng'illab... qo'shilib qo'ya qolasiz.

«Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch»ni har o'qiganingizda bir yangi hikmat chiqadi. Misol uchun, mana bu fikrni olaylik: «Barchamizga ayon bo'lishi kerakki, qayerdagi beparvolik va loqaydlik hukm sursa, eng dolzarb masalalar o'zibo'larchilikka tashlab qo'yilsa, o'sha yerda ma'naviyat eng o'jiz va zaif nuqtaga aylanadi...». Bu fikr ham aynan 116-betda, «niqobli EDOS» ning maqsad-mohiyatiga o'tishdan oldin aytilmoqda. Afsuski, ma'naviy o'jizlikning misollari ham ko'p. Farzandlari loqayd millatning sevimli qadriyatlarini qarovsiz, himoyasiz qolayotir. Aholisi odamovilarga, ota-onasini tanimaydigan bolalarga – **lost generation** (boy berilgan avlod)ga aylanayotir. Chunki ular bir-birlariga o'zlarining emas, birovlarining ko'zlari bilan qaraydigan qilib qo'yilgan. Mafkuraviy xuruj orqali ong anesteziyasi [10]amalga oshirilgan. Miyada o'tirgan nazoratchi – «bojxona xodimi» mast. Bundan foydalangan «niqobli EDOS» o'zining buzuq g'oyalarini olib kirib, o'tib ketgan. Endi o'sha buzuq g'oyalarga ergashganlarni, ularni takrorlaganlarni «zamonaviy fikrlovchilar», deb maqtashadi. To'g'ri yo'ldagilarni: «Siz adashayapsiz», deb ikkilantiradi. Adashganlarga: «Siz to'g'ri yo'ldasiz!», «XXI asrning bo'lajak liderlaridan birisiz», deb hamdu sanolar aytishadi. Shunday qilib, qurbon-mamlakat aholisi ongida ota-bobolari tushuntirib ketgan dunyo manzarasi o'rniga, begonalar unga tiqishtirgan kognitiv model – o'zgalar tomonidan chizilgan «o'zgacha dunyo manzarasi» namoyon bo'ladi. Natijada, odamlar ota-bobolari solib bergan yo'llardan emas, o'zgalar solib bergan yo'ldan keta boshlashadi. Bu yo'l esa ota-bobolari istagan manzillarga emas, o'zgalar istagan manzillarga olib ketadi.

«Niqobli EDOS» bilan sirlashib qolsangiz, u sizga shunday degan bo'lardi: «Bilasanmi, men senga aytсам, dunyoda odamlar ko'payib ketdi. Planetaning resursi kamayib borayotir. Nima qilib

bo'lsa ham, resurlarni egallab olish kerak. Ortiqcha odamlarni kamaytirish kerak. Buning uchun demografik urush qilish kerak. Tug'ilish kamayib, o'lim ko'payadi. Seksual inqilob, gedonizm, iste'molchilik, xudbinlik targ'iboti kuchaytirilsa, tug'ilish ham kamayadi. Sosial-darvinizmni kuchaytirish kerak. Odamlar bir-biriga befarq, loqayd bo'ladi, o'lim ko'payadi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, rivojlanayotgan, yosh mustaqil mamlakatlar aholisini ulkan «ijtimoiy axlat o'ra»siga tashlash kerak. Buni hozircha qashshoqlar, uysizlar, qarovsizlardan boshlasa ham bo'ladi. «Ommaviy madaniyat»ga o'ynatib, ularga «evtanaziya»ni o'rgatish kerak»

Afsuski, bu fikrlar gap bo'lib qolayotgani yo'q. Iqtisodiy tahlillar ulkan davlatlar iqtisodiyoti ishlab chiqarish evaziga emas, balki kuchlilar orasida ojizlarning boyliklarini bo'lib olish hisobiga ekanligini ko'rsatmoqda. Bunga ular milliy davlatlarni qarz domiga tushirish, milliy resurslarini, jumladan tabiiy boyliklarini o'zlashtirib olish, privatizasiya orqali kuchsizlantirish, tiz cho'ktirish hisobiga erishmoqda.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Каримов И.А. «Камолот» ёшларимизнинг чинакам суянчи ва таянчи бўлсин. // «Халқ сўзи» газетаси, 2001 йил 25 январь.
2. Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. – Т.: «Маънавият», 2008. – Б.112.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т: «Ўзбекистон», 2017. – Б. 45-46.
4. **Анестезия** (грек. ἀναίσθησία — ҳиссизлик) — одам танаси ёки танаси бир қисмининг теварак-атроф ва ва ўз ҳолати ҳақидаги маълумотларни ҳис қилиш қобилиятининг тўла ёки қисман тўхтатилиши.
5. Хантингтон Самюэль. Столкновение цивилизаций. пер. с англ. – М.: АСТ, 2014. – 571 с.
6. Saydullaeva, A. R. (2022). Gender Factors in Raising the Intellectual and Social Status of Women in Universities. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 103-107.
7. Egamberdieva, T. A., & Saydullaeva, A. R. (2022). The Importance Of Axiological Approach In Forming The Cognitive Competence Of Future Teachers. Journal of Positive School Psychology, 6(10), 2009-2015.
8. Миллатлараро дўстлик ва ҳамжиҳатлик – халқимиз тинчлиги ва фаровонлигининг муҳим омилидир. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Республика байналмилал маданият маркази ташкил этилганининг 25 йиллигига бағишланган учрашувдаги нутқи. <http://www.uza.uz/oz/politics/-24-01-2017>.